

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDIT” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 658.1:33M (575.1)

KAMOLOV.OBIDJON ISOMIDDINOVICH

TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

70410102-“Audit” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:
DSc.,dots. Maxmudov A.N.

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi «Moliyaviy tahlil va audit» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.


5 -sonli bayonnoma «25» aprel 2023-y.

Kafedra mudiri:
DSc.,prof. Xajimuratov N.Sh.


imzo


23.05.2023-y
sana

Ilmiy rahbar:
DSc.,dots. Maxmudov A.N.


imzo

18.05.2023-y
sana

Magistratura talabasi
Kamolov O.I.


imzo

18.05.2023-y
sana

Dissertatsiya "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakultetida 2023-yil
«23» may da

№ MUA-01/14

raqami

bilan

ro'yxatga

olindi

ANNOTATSIYA

Annotatsiya. Mazkur dissertatsiya tovar-moddiy zaxiralar auditini takomillashtirish, moddiy qiymatliklardan samarali foydalanish va ortiqcha xarajatlarni kamaytirish bo'yicha takliflar, auditdan samarali foydalanish usullari bo'yicha aniq qarorlar qabul qilish masalalarini o'rganish, nazoratni kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: *tovarlar, tovar-moddiy zaxiralar, auditni rejalashtirish, tayyor mahsulotlar, auditorlik riski, ishlab chiqarish xarajatlari, auditda firibgarlik,*

ANNOTATION

Annotation. This thesis is dedicated to the improvement of the inventory audit, proposals for effective use of material assets and reduction of excess costs, study of the issues of making specific decisions on the effective use of the audit, strengthening of control.

Key words: *goods, inventory, audit planning, finished products, audit risk, production costs, audit fraud,*

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
I BOB. KIRISH	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	9
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	12
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	12
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	13
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	15
2.1.. Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari.....	15
2.2. Tadqiqot gepotezasi.....	32
III BOB. TADDIQOT METODOLOGIYASI.....	52
3.1. Ma'lumotlar manbalari	52
3.2. Tadqiqot dizayni.....	52
3.3. Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar	53
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	53
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi... 53	
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	54
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	55
4.1. Tovar-moddiy zaxiralarning auditi tekshiruvini o'tkazish bosqichlari va auditorlik tekshiruvini rejalashtirish	55
4.2. Inventar va xo'jalik jihozlari bo'yicha muomalalar auditi.....	62
4.3. Moddiy qiymatliklar va tovar zaxiralari auditini takomillashtirish... 70	
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR	76
5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy yangiligi va natijalari	76
Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi.....	76
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	76
5.3. Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar	78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:	79

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Jahon mamlakatlarida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jahon bankining hisobotiga ko'ra «2022 yil 1 aprel holatiga bug'doy narxining 30 foizga, neft, tabiiy gaz, mineral o'g'itlar narxi ham sezilarli darajada oshgani va dunyo mamlakatlarida ushbu mahsulotlarga bo'lgan taqchillik ortayotgani»¹ ta'kidlab o'tilgan. Mazkur holatlar aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir etishi bilan birga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar yetishmovchiligi natijasida ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar rahbariyati tovar-moddiy zaxiralarni o'z vaqtida hisobga olish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, unumsiz xarajatlarni oldini olishga e'tibor qaratmoqda.

Jahonning turli mamlakatlarida iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida tovar-moddiy zaxiralar auditini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobida tan olish, ularni haqqoniy qiymatda baholash, tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasini o'tkazish, auditorlik tekshiruvlarida tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha ichki nazorat tizimini baholash, xalqaro standartlar asosida tovar-moddiy zaxiralarni tasniflash, tovar-moddiy zaxiralar tarkibida bir yillik o'simliklarni hisobga olish, tovar-moddiy zaxiralar auditida nazoratning samarali amallarini qo'llash, tovar-moddiy zaxiralar auditida to'plangan dalillarning ishonchliligini baholash kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va sanoatning yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushini oshirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar

¹ <https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/37223/CMO-April-2022.pdf>